



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 5 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 5

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 5



ТОШКЕНТ-2026

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

<b>1. Diloram Babajanova</b> O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARI:ILM-FAN DARG‘ALARI TARIXDA VA HOZIR.....	5
<b>2. Nilufar Dalibayevna Djurayeva</b> XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDA SOVETLAR SIYOSATI: MANBALAR TAHLILI VA TARIXSHUNOSLIK MASALALARI.....	13
<b>3. Наргиза Абдурахманова</b> ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА АБУЛ БАРАКОТ НАСАФИЙ АСАРЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШИ.....	30
<b>4. Шерзод Таштурсунович Бахранов</b> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНИНИ РИВОЖЛАНИШИ: ЮТУҚ ВА МУАММОЛАРИ.....	37
<b>5. Ixtiyor Voxodir o‘g‘li Voxodirov</b> TURKISTON HARBIY OKRUGI TOMONIDAN 1916-YILGI JIZZAX QO‘ZG‘OLONING BOSTIRILISHI VA UNING OQIBATLARI.....	47
<b>6. Наргиза Кенжаева</b> ТАРИХИЙ ТАДҚИҚОТЛАРДА ПРОСОПОГРАФИК МЕТОДНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ: ПОМИР РУС ТАДҚИҚОТЧИЛАРИНИНГ ЖАМОАВИЙ БИОГРАФИЯСИ (XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИ).....	53
<b>7. Lola Yusupovna Samatova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI SOVET UCHUVCHI AYOLLAR BO‘LINMASI TO‘G‘RISIDA.....	66
<b>8. Ismoil Alimbayevich Nurmetov</b> O‘ZBEKISTONDA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI (BRM) AMALGA OSHIRISH STRATEGIYASI.....	72
<b>9. Malika Xaydarova Shaxriddin qizi</b> AMIR TEMURNING JANGLARDAGI HARBIY MAHORATI.....	78
<b>10. Feruza Erkinovna Atajanova</b> OLIIY TA‘LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR TENDENSIYALAR TAHLILI.....	83
<b>11. Muborak Madrimovna Matyakubova</b> XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS, MUHTASIB, SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY MAQOMI.....	89
<b>12. Анварбек Муродович Омонов, Маъруфжон Нурулиевич Рўзиев</b> КЎЛБУЛОҚ МАКОНИ ТОШ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ТАҲЛИЛИГА ДОИР (ИЛК ПАЛЕОЛИТ ДАВРИ МАТЕРИАЛЛАРИ АСОСИДА).....	94




UDK: 9(575.1)02(575.1.) (09)

**Muborak Madrimovna Matyakubova,**  
UrDU, Tarix kafedراسи dotsenti  
E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

**XVI-XIX ASRLARDA XIVA XONLIGI BOZORLARIDA BOZORBOSHI, RAIS,  
MUHTASIB, SARROFLAR VA DALLOLLARNING FAOLIYATI VA HUQUQIY  
MAQOMI**

**For citation:** Mubarak M. Matyakubova. THE ACTIVITIES AND LEGAL STATUS OF THE MARKET HEAD, CHAIRMAN, ACCOUNTANT, MONEY CHANGERS AND BROKERS IN THE MARKETS OF THE KHIVA KHANATE IN THE 16TH-19TH CENTURIES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 5.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20082842>

**ANNOTATSIYA**

XVI-XIX asrlarda Xiva xonligi bozorlarida iqtisodiy - huquqiy munosabatlar tizimli tashkil etilgan edi. Bozor faoliyatida ishtirok etuvchi bozorboshi, rais, muhtasib, bojmon, sarrof, dallol muayyan vazifa va huquqiy maqomga ega bo'lgan. Ular savdo jarayonida o'z vazifasiga ko'ra shariat asosida tartib, adolat va shaffoflikni ta'minlashda harakat qilganlar. Bozor boshqaruvida diniy tashkilotlarning asosiy vazifalaridan biri bozor tizimini uchun shariat normalarini ishlab chiqish va u orqali huquqiy munosabatlarni tartibga solish edi.

Ushbu maqolada Xiva xonligi bozorlarida bozorboshi, rais, muhtasib, sarroflar va dallollarning faoliyati va huquqiy maqomi masalasi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Xiva xonligi, iqtisodiy hayot, bozor, rais, muhtasib, sarroflar va dallol.

**Матьякубова Муборак Мадримовна,**  
УрГУ, доцент кафедры истории  
E-mail: muborakmatyakubova477@gmail.com

**ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ И ПРАВОВОЙ СТАТУС ГЛАВЫ РЫНКА, ПРЕДСЕДАТЕЛЯ,  
БУХГАЛТЕРА, МЕНЯЛ И БРОКЕРОВ НА РЫНКАХ ХИВИНСКОГО ХАНСТВА В  
XVI-XIX ВЕКАХ**

**АННОТАЦИЯ**

XVI-XIX веках на рынках Хивского ханства были систематически организованы экономические и правовые отношения. Глава рынка, председатель, бухгалтер, таможенник, менял и брокер, участвовавшие в рыночной деятельности, имели определенные задачи и правовой статус. В соответствии со своими обязанностями они действовали для обеспечения порядка, справедливости и прозрачности в торговом процессе на основе шариата. Одной из главных задач религиозных организаций в управлении рынком было развитие норм шариата для рыночной системы и регулирование правовых отношений посредством них. В данной

статье анализируются деятельность и правовой статус главы рынка, председателя, бухгалтера, менял и брокеров на рынках Хивского ханства.

**Ключевые слова:** Хива-ханство, экономическая жизнь, рынок, председатель, бухгалтер, менялы и посредники.

**Mubarak M. Matyakubova,**

UrSU, associate professor of the Department of History

## **THE ACTIVITIES AND LEGAL STATUS OF THE MARKET HEAD, CHAIRMAN, ACCOUNTANT, MONEY CHANGERS AND BROKERS IN THE MARKETS OF THE KHIVA KHANATE IN THE 16TH-19TH CENTURIES**

### **ABSTRACT**

In the 16th-19th centuries, economic and legal relations were systematically organized in the markets of the Khiva Khanate. The market head, chairman, accountant, customs officer, money changer, and broker participating in the market activities had certain tasks and legal status. They, according to their duties, acted to ensure order, justice, and transparency in the trading process based on Sharia. One of the main tasks of religious organizations in market management was to develop Sharia norms for the market system and regulate legal relations through them.

This article analyzes the activities and legal status of the market head, chairman, accountant, money changers, and brokers in the markets of the Khiva Khanate.

**Index Terms:** Khiva Khanate, economic life, market, chairman, accountant, money changers and brokers.

**Kirish.** Islom ilohiyotchilari, huquqshunos va olimlar jamoasi jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotida kuchli ta'sirga ega bo'lgan. Zero, islom dini jamiyatning asosiy mafkurasiga aylangan bir sharoitda, jamiyatning barcha sohalarida din va odatlar asosida o'rnatilgan normalar, tartib-qoidalarga amal qilish va ularning barqaror rivojida ulamolar muhim o'rin tutgan. Ijtimoiy tarkibi turlicha bo'lgan ulamolar bir-biridan nasliy mavqei, davlat boshqaruvi pog'onalarida egallagan amal va mansab, huquq va imtiyozlari, moddiy ta'minoti, vazifa va mashg'ulotlari bilan ajralib turgan diniy tabaqa vakillaridan iborat bo'lgan[1].

Bozorboshi umumiy boshqaruv va joylashtirish ishlari uchun javobgar bo'lsa, muxtasib shariat talablari asosida mahsulot sifatini va narxlar adolatini nazorat qilgan. Rais aholi manfaatlarini himoya qiluvchi va jamoat tartibini saqlovchi mahalliy yetakchi sifatida faoliyat yuritgan. Bojmon boj va yig'implarni to'plashda, sarrof moliyaviy ayirboshlash va tanga muomalasida, dallol esa vositachilik orqali savdoni faollashtirishda, mirshab aholining tinchligini saqlashda muhim o'rin tutgan. Ularning huquqiy maqomi, mas'uliyati va amaliy vazifalari bozor faoliyatining barqaror va samarali ishlashini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, Xiva xonligining iqtisodiy boshqaruv tizimi yuqori darajada tashkil etilganligini ko'rsatadi.

Xiva xonligida iqtisodiy hayotning muhim bo'g'ini bozorlar davlat nazorati ostida bo'lgan. Bozor faoliyatining to'g'ri yo'nalishda tashkil etilishi va jamoat manfaatlariga mos kelishi uchun maxsus ma'muriy shaxs – bozor boshqaruvchisi tayinlangan. Bozor boshqaruvchisi davlat nomidan ish yurituvchi mas'ul mansabdor hisoblangan. Uning zimmasiga bozor tartibini saqlash, savdo jarayonini nazorat qilish, davlat soliq va to'lovlarining yig'ilishida ishtirok etish kabi muhim vazifalar yuklatilgan. Shuningdek o'lchov va tarozining to'g'ri ishlatilishi, non, go'sht, yog', don kabi kundalik ehtiyoj mahsulotlarining narx-navo tizimida belgilangan chegaralardan chiqmasligini nazorat qilish ham uning zimmasida edi. Bozorda har kungi tarozi puli, joy puli, ba'zan bojxona yig'implarini yig'ishda ham mas'ul bo'lgan. Bozorda xizmat qiluvchi dallollar, sarroflar, bojmonlar, tarozichilar va boshqalar faoliyati ustidan nazorat ham unga yuklatilgan.

### **Metodlar va o'rganilganlik darajasi:**

Xiva xonlari arxiv hujjatlariga ko'ra, xonlikda bozor munosabatlariga aloqador rais vazifasi bo'lib, bu lavozimga madrasada ta'lim olgan, shariat qoidalariga to'la amal qiluvchi, haqiqatparvar kishilar xonning maxsus buyrug'iga ko'ra tayinlangan. Rais shariat tartib-qoidalari, diniy

marosimlar - ro'za, besh vaqt namoz, taxorat, xayri-ehson ishlarini aniq bajarilishi ustidan nazorat qilgan. Ota-onalar bolalarini o'z vaqtida maktabga yuborishini, savdogarlar xaridorlarni aldamasliklari uchun tarozilarni tekshirgan, shaharni tozaligi va xavfsizligini kuzatib turgan[2, b.62]. Xalq tomonidan raislar juda hurmat qilingan. Zero, rais din va axloq nazoratchisi sifatida aholi uchun eng e'tiborli kishi sanalgan. Shahar va qishloqlarda tozalik va xavfsizlikni ta'minlashi, bozorlarda tosh-tarozini tekshirishi noqonuniy holatlarga izn bermasligi sabab, xalq rais siymosida adolatli insonni ko'rgan. Rais xon tomonidan maxsus farmonga ko'ra tasdiqlansa-da, xalq adolat ramzi, deb bilgan raislardan ba'zida xonlar ham hayiqishgan[3, b.35 ]. Rus sayyohlari Xiva bozorlarini gavjumligi va mahsulotlarga boyligi, ajnabiy savdogarlarning ko'pligi bilan Buxoro va Qo'qon bozorlaridan qolishmasligi haqida ma'lumotlar qoldirganlar[4, b.345 ].

Raislar musulmon huquqi va qonunlarni bajarilishini shariat asosida nazorat qiluvchi qozi kalon taqdimiga muvofiq xon tomonidan tayinlangan. Qozi kalonning poytaxtda o'zining devoni va mahkamasi bo'lgan va u yerda tayinlovdagi raislar masalasi ko'rib chiqilgan. Har bir shahar va katta qishloqning o'z raisi bo'lgan. Arxiv ma'lumotlarida ko'rsatilishicha, rais eshon 1265-1275 (1848-1859) yillari har yili o'ttiz tilladan maosh olgan[2, b.62 ]. Xiva xonligidagi xalq orasida alohida hurmat e'tiborga sazovor bo'lgan raislar qatorida Abdulla xol Nazar rais, Muhammad Solih rais va Muhammad Rasul rais kabilarnihg nomlarini keltirish mumkin.

Ismoil Mirpanjiy xotiralarida "o'sha vaqtdagi noma'qul odatlardan biri oddiy fuqarolardan tortib xonlargacha nos yoki chilim chekkanlar. Raislar agar bironing qo'lida, u xoh qozikalon bo'lsin, xoh boshqa amaldor bo'lsin, chilim ko'rib qolsa, "uni chekish bid'atdir va bu o'z molini yoqishdir", deb tanbeh berilgani keltirilgan. Muhammad Rahimxon hukmronlik davrida mansabdorlar, katta yer egalari, qisman ruhoniylar orasida ham buzuvchilik, chilim, bang chekish, ichkilikbozlik, fohishabozlik avj olgan edi [5, b.40 ]. Shu sababli bu masalada keskin chora ko'rish xon zimmasida edi. Chunki turli maishatbozliklar oddiy xalqni juda holdan toydirgan, yosh qizlarni zo'rlash, bachabozlik kabi illatlar avj olgan edi. Muhammad Rahimxon I farmoniga ko'ra mamlakatda ichimlik ichish, bang chekish qat'iy ta'qiqlanadi. Bu qoidani buzgan kishining og'zi qulog'igacha kesilishi shart qilib qo'yilgan[6, b.142 ]. "Xiva xonligi tarixidan lavhalar" risolasi muallif shunday yozadi: "Rais chaqirilmagan joyga bormaydi. Agar iznsiz bironing uyiga boradigan bo'lsa, o'sha yerda chilimni ko'rsa, uning ta'zirini beradi. Agar rais biror vaqt ish bilan xon majlisiga borib qolsa yoki xonning o'zi uni chaqirtirsa, ushbu majlisda chilim keltirish man etiladi. Xon uning oldida chilim chekishga jur'at etolmas ekan, boshqalarga yo'l bo'lsin". Ya'ni, rahbar boshqaruv yig'ini, kengashu majlislar va jamoat joylarida chilim yoki nos chekishni ta'qiqlash haqidagi qaroriga birinchi bo'lib o'zi amal qilgan[3, b.28]. Muhtasib (arabcha so'z hisob-kitobni nazorat qiluvchi ma'nosini anglatadi) lar odamlarning jamoat joylarida yurish-turishi, shariat qonunlarining bajarilishi, bozorlardagi narx-navo va o'lchov asboblarning to'g'riligi ustidan nazorat qilish, urf-odatlarining bajarilishini kuzatish, diniy vazifalarni bajarmagan kishilarni jazolashga hukm chiqarish kabilar ishlar bilan shug'ullangan amaldor hisoblanadi[7, b.286 ]. Muhtasiblar savdo jarayonida aldanchilik, miqdor va o'lchovda firibgarlik, foiz bilan pul berish, harom mollarni sotish kabi ishlarning oldini olishga harakat qilgan. Ular asossiz qimmat narxda sotish holatlarini tekshirib, xalq manfaatlarini himoya qilar edilar. Ayniqsa oziq-ovqat mahsulotlari va dori vositalarini sifati muhtasiblar nazorati ostida bo'lgan. Shu jihatdan ular Xiva bozor munosabatlari va iqtisodiy hayotning rivojiga salmoqli hissa qo'shganlar. Bozorlar faoliyatida adolat tamoyillarini ta'minlash muhim o'rin tutgan. Buxoro, Qo'qon xonliklari singari Xiva xonligida ham muhtasiblarning faoliyati sezilarli bo'lib, ular maxsus huquqiy vakolatga ega bo'lgan. Mahalliy hukumat tomonidan tayinlangan muhtasiblar bozorlarda tarozi va o'lchov vositalarining aniqligini tekshirgan va tartib-intizomni saqlashga harakat qilgan. Bozorlar faoliyatida har qanday aldov va noqonuniy faoliyat qat'iy man etilgan. Savdogarlar qonunbuzarlik uchun jazoga tortilgan.

**Tahlil va natijalar:** Huquq normalarini amalga oshirish va qo'llashda musulmon huquq manbalari, ya'ni Qur'on, sunna, ijmo va qiyosga tayangan. Imom al Buxoriy merosiga mansub hadislar to'plami "Al-Jome' as Sahih" islom dinida Qur'oni Karimdan keyin e'zozlanadigan ikkinchi manba hisoblangan. Huquqiy qo'llanma tarzida amalda keng foydalanilgan, tarixan

o‘zining ijobiy tasdig‘ini topgan va tan olingan, XIII asrda Imom Burhoniddin Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr ibn Abduljalil al-Farg‘oniy al-Rishtoniy al-Marg‘inoniy tomonidan yaratilgan “Al-Hidoya” asarlaridan ham keng foydalanilgan[8,b.39-44]. Ushbu Hanafiy fiqh mazhabiga oid qo‘llanma islom dunyosidagi mashhur ikkita asardan bittasi bo‘lib, undan Xiva xonligida ham asosiy huquqiy manba sifatida foydalanib kelingan. Ushbu asar musulmon huquqshohlari, qozilik idoralarida to 1928 yilga qadar dasturiy bo‘lib xizmat qilgan. Davlat boshqaruvi, qozilarning hukm chiqarish, ayb e‘lon qilish, haq undirish jarayonlari, umuman turli huquq sohalarining muammolari unda yoritilgan huquqiy qarashlar asosida hal qilingan[9,b.3-6]. Shuningdek musulmon huquqida yuzaga keluvchi barcha muammolar yechimi fiqhiy dalillash va holat-qiyosiy uslublarida ochib berilgan. Bu jihatlar esa boshqa fikhiy qo‘llanmalarda takrorlanmagan. Bozor munosabatlari ham yuqorida keltirilgan manbalarga tayangan holda ish olib borgan.

Tarixiy manbalarda Xiva bozorlari tartibli va shariat qoidalariga asoslangan holda faoliyat yuritgani ta‘kidlanadi. Tarixchi Mahmud ibn Vali “Bahr al-asror” asarida shunday yozadi: “Xonlik bozorlarida adolatli savdo-sotiq qilish uchun har bir savdogarga qat‘iy talablar qo‘yilgan edi. Tosh tarozilarning noaniqligi aniqlansa, savdogar mol-mulki musodara qilingan”. Bu o‘sha nafaqat iqtisodiy adolatni, balki savdo-sotiqda ishonchni oshirgan.

Xonlikda tosh tarozilarni nazorat qilishda shariatning asosiy tamoyillari va an‘analari ustun turgan. Bozor faoliyati davomida savdogarlarning halollik tamoyiliga amal qilishi qat‘iy nazorat qilingan. Tarozilarning va o‘lchov vositalarining aniqligini tekshirish uchun maxsus qoidalar belgilangan. Masalan, savdogar o‘z tarozisini ko‘rsatsa, uni ro‘yxatdan o‘tkazishi talab qilingan. Ushbu tamoyillarni buzgan savdogarlar jazolangan, jamiyat oldida sharmanda qilingan.

Xiva xonligida sarroflik kasbi qadimdan mavjud bo‘lib, iqtisodiy rivojlanish bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Chegara shaharlarda va mamlakatning yirik savdo markazlarida boshqa davlatlardan kelgan savdogarlarning pullarini almashtirishga, savdo shirkatlari bilan tegishli shartnoma tuzish orqali qarz berishga, chek berishga ixtisoslashgan sarroflarning shirkatlari mavjudligi manbalarda qayd etilgan. Rivojlangan o‘rta asrlarda Buyuk ipak yo‘li orqali amalga oshirilgan xalqaro iqtisodiy-savdo aloqalarida chek bilan savdo qilish amaliyoti ham mavjud edi[10, b.94]. Sarroflar tangalarni ayirboshlash, baholash, soxta pullarni aniqlash, qarz berish va ba‘zan omonat saqlash kabi xizmatlarni ko‘rsatgan. Sarroflik faoliyati xonlikning iqtisodiy hayotida shu qadar muhim ahamiyatga ega ediki, ayrim hollarda davlat amaldorlari ularga moliyaviy masalalarda murojaat qilgan. Sarroflarning huquqiy maqomi xon farmonlari orqali belgilanib, ular maxsus ruxsatnomalar asosida faoliyat yuritgan va bozorlarda moliyaviy intizomni saqlashga ham mas‘ul edilar.

Xiva xonligida sarroflik faoliyati islomiy huquq – fiqh asoslariga zid bo‘lmagan holda olib borilgan. Islomda ribo (foiz) taqiqlangan bo‘lsa-da, sarroflar bu holatni turli yuridik yo‘llar bilan hal qilishgan. Misol uchun, qarzga pul berishda foiz o‘rniga boshqa xizmatlar yoki tovar ayirboshlash orqali daromad olishgan (ya‘ni tijorat krediti shaklida). Ba‘zi huquqshunoslar va ulamolar sarroflarning faoliyatini shariatga zid emas, balki zaruratdan kelib chiqqan ijtimoiy zarur kasb deb baholashgan. Chunki ular xalqaro savdo-sotiqda vositachilik qilgan, bu esa davlatning iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlagan.

Xiva xonligining moliyaviy barqarorligida sarroflik ishining o‘ziga xos o‘rni, pul muomalasi yaxshilandi, savdo aloqalari kengaydi, bozor iqtisodiyoti rivojlandi, xalqning iqtisodiy ongi, savdo madaniyati o‘sdi va moliyaviy siyosat mustahkamlandi. Natijada Xiva xonligi mintaqadagi yirik savdo va iqtisodiy markazlardan biriga aylandi.

Sarroflarning joylashgan joylari odatda kichik, ammo xavfsizlik nuqtai nazaridan mustahkam inshootlar bo‘lgan. Bu joylar quyidagicha tashkil topgan: pul ayirboshlash rastasi - xaridorlar bilan bevosita muloqot qilinadigan joy; saqlash hujrasi - pul, tanga, hujjat va mol-mulk saqlanadigan kichik xonalar; qabul xona - mijozlar bilan shartnoma va hisob-kitob ishlari olib boriladigan joy. Ba‘zi sarroflar masjid yoki madrasa hujralarining bir qismini ijaraga olib faoliyat yuritgan. Bu joylarda ular diniy yetakchilarning nazorati ostida ishlashgan, bu esa ularning halolligiga ishonchni oshirgan.

Savdo jarayonida ishonch va obro‘ muhim ahamiyatga ega bo‘lib, dallollar savdo ishlarini halollik va adolatli asosda bajarishga majbur edi. Xaridor va sotuvchini sotayotgan mol narxida o‘zaro kelishtirishga harakat qilganlar va bu ish uchun ma‘lum miqdorda haq olganlar.

**Xulosa va takliflar:** Tashqi savdoda ham dallollarning roli katta edi, ular Xiva xonligi bilan boshqa mamlakatlar o‘rtasida savdo aloqalarini o‘rnatgan va tovarlar tashish jarayonini boshqargan. Ular o‘z faoliyatini, odatda, qimmatbaho tovarlarni, masalan, ipak, mis, oltin, kumush, ziravorlar, qalay va boshqa qimmatli materiallarni tashqi bozorga eksport qilish va tashqaridan import qilish orqali amalga oshirgan. Xiva xonligining qo‘shni davlatlar bilan savdo aloqalarning vositachilari bo‘lgan. Xonlikning tashqi savdosi dallollarning savdo texnikasini va xalqaro bozorlar bilan ishlash usullarini o‘zlashtirganligini ko‘rsatadi. Ular ikki davlat o‘rtasidagi madaniy, iqtisodiy va savdo aloqalarining rivojlanishida muhim rol o‘ynagan.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Normurodova G. Uluslararası Türk Dünyası Araştırmaları Sempozyumu. Semerkant 12 - 16 Ekim 2018. ISBN: 978-605-80938-2-9. (Normurodova G. International Turkish World Research Symposium. Semerkant 12 - 16 October 2018. ISBN: 978-605-80938-2-9.)
2. Воҳидов Ш., Холиқова Р. Марказий Осиёдаги давлат бошқаруви тарихидан. Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. -Б. 62.(Vokhidov Sh., Kholikova R. From the history of state governance in Central Asia. Tashkent: Yangi asr avlod, 2006. -P. 62.)
3. Бекмуҳаммад У. Хива хонлиги тарихидан лавҳалар. Урганч, 2008. - Б.35.(Bekmuhammad U. Scenes from the history of Khiva Khanate. Urganch, 2008. -B.35.)
4. Эшов Б. Ўзбекистон давлатчилиги ва бошқаруви тарихи. Тошкент, 2012. – Б. 345. (Eshov B. History of statehood and governance of Uzbekistan. Tashkent, 2012. – P. 345.)
5. Сапарбоев Б. Муҳаммад Раҳимхон I даврида Хива хонлиги тарихи (1806-1825 йй.). Бухоро, Дурдона. 2023. -Б.40. (Saparboev B. History of the Khanate of Khiva during the reign of Muhammad Rahimkhan I (1806-1825). Bukhara, Durдона. 2023. -B.40.)
6. Худойберганов К. Хива дунёдаги энг кўҳна қалъа. Тошкент. 2012. -Б. 142. (Khudoiberганov K. Khiva is the oldest fortress in the world. Tashkent. 2012. -P. 142.)
7. Исмоилов М., Шаропов А. Тарих атамалари луғати. Тошкент: Академнашр, 2013. - Б.286. (Ismailov M., Sharopov A. Dictionary of historical terms. Tashkent: Akademnashr, 2013. - B.286.)
8. Саидов А., Тошқулов Ж. Ўзбекистон давлати ва ҳуқуқи тарихи. – Тошкент, 1995. – Б. 39 – 44; Сиёсий ва ҳуқуқий таълимотлар тарихи: олий ўқув юрт. ҳуқуқшунослик мутахассислиги бўйича таълим олаётган талабалар учун дарслик. – Тошкент: Тошкент Давлат юридик ин-ти, 2003. – Б. 47–49. (Saidov A., Toshkulov J. History of the State and Law of Uzbekistan. – Tashkent, 1995. – P. 39 – 44; History of Political and Legal Education: A Textbook for Students Studying in Law at a Higher Educational Institution. – Tashkent: Tashkent State Law Institute, 2003. – P. 47–49.)
9. Исхаков С. А. Бурхониддин Марғиновичнинг «Ҳидоя» асари – муҳим ҳуқуқий манба (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот): Юрид. фан. номз. ... дис. автореф. – Тошкент, 2002. – Б. 3 – 6. (Iskhakov S. A. Burkhoniddin Marginoni's work "Hidoya" - an important legal source (historical and legal research): Jurid. science. candidate. ... dissertation. author's ref. - Tashkent, 2002. - P. 3 - 6.)
10. Анёзов Р. Б. Марказий Осиё карвон йўллари инфраструктуралари ва хизмат кўрсатиш соҳалари (XIV-XIX асрлар Хоразм воҳаси мисолида). Урганч, 2023. -Б.94. (Anyozov R. B. Infrastructure and service sectors of the Central Asian caravan routes (on the example of the Khorezm oasis of the 14th-19th centuries). Urgench, 2023. -P.94.)

# ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
LOOK TO THE PAST

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000